

GOLUBIKA O'SIMLIGINING BIOLOGIYASI VA SHIFOBAXSHLIK
XUSUSIYATLARI

Jabborova.Ch.D

Asadova .R.A

Buxoro davlat texnika universiteti talabalari. O'zbekiston

Jalliyev.B.A

Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti, q.x.f.n. O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada golubika o'simligining biologiyasi, tarkibidagi vitaminlar, fermentlar va minerallar haqida, shuningdek, xalq tabobatida qaysi kasalliklarni davolashda qo'llanilishi va farmaseftik xususiyatlari haqida malumotlar keltirilgan. Ushbu o'simlikni yetishtirishning o'ziga xos jihatlari, uning tuproq, iqlim va boshqa hayotiy omillarga munosabati, qaysi davlatlarda ko'proq yetishtirilishi va O'zbekiston Respublikasida uni yetishtirishning istiqbollari haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *shifobaxsh o'simlik, vitaminlar, antioksidantlar, organik kislotalar, nectar, fakultativ-entomofil o'simlik, tabiiy dori vositasi, xalq tabobati, yetishtirish texnologiyasi.*

Vereskdoshlar (Ericaceae) oilasi

GOLUBIKA (Blueberry) o'simligi Vereskdoshlar oilasi, Vaksinium turkumiga kiritilgan bargini to'kuvchi buta o'simlik hisoblanadi. Golubika o'simligining mevasi jahon bozorida eng qimmatli rezavor mevalar qatoriga kiradi.

Golubika o'simligi shimoliy yarim sharning mo'tadil va sovuq iqlimli mintaqalarida keng tarqalgan. Asosan o'rmon hududida botqoqlangan maydonlarda, tog'larning yuqori qismida o'sadi [4].


Tabiatda balandligi 30-50 smli sershox buta, ba'zan yer bag'irlab o'suvchi shoxlari bo'ladi. Golubika o'simligi butalari gullash davrida -7° C gacha sovuqda seziralli darajada hosildorligiga zarar yetkazmaydi. Golubika mevalari dunyo bo'ylab eng ko'p import qilinadigan rezavor mevalar qatoriga kiradi. Golubikani oziqlantirish uchun talab qilinadigan o'g'itlar meyorlari 1m^2 yerga: K-35 gr, P-15 gr, N-20 gr, Torf, gumus yoki chirigan gong -7 kg ni tashkil etadi.

Golubikaning mo'tadil o'sishi, rivojlanishi va hosil berishi uchun ishqorli tuproq zarur hisoblanadi. Bu o'simlik, tuproqning pH ko'rsatgichi 4-4.5 oraligida bo'lganda yaxshi o'sadi. Ushbu rezavor meva asosan vegetativ usulda qalamcha, hamda parxish va ona ildizdan ajratib olish usullari orqali ko'paytiriladi. Uning mevalari yangi terilgan va qayta ishlangan holda istemol qilinadi. Golubika ko'chatlari buta shaklida bo'lib, balandligi bir metr atrofida bo'ladi. Ko'chatlar olti yil parvarishlangandan song har bir butadan 5 kg gacha meva hosili olinadi.

Kimyoviy tarkibi.

Golubika mevalari tarkibida 8 % gacha qand moddalari, 2,7 % gacha organik kislotalar, 0,6 % gacha pektin moddalari, 1 % gacha oqsil, 1,6 % gacha kletchatka moddalari bor. Mevalari fiziologik faol bo'lgan fenol birikmalariga boy. Golubika mevasi tarkibida makroelementlardan natriy-6 mg, kaliy -51 mg, Kaltsiy-16 mg, fosfor-8 mg gacha,

mikroelementlardan cobalt, yod, mis kabi elementlar uchraydi. Urug'ida 32 % gacha yog'lar, barglari tarkibida 10 % gacha tanin moddasi to'playdi.



1-RASM GOLUBIKA O'SIMLIGINING PISHGAN MEVALARI.

Golubika mevalari turli fiziologik xususiyatlarga ega bo'lgan triterpen birikmalari manbai sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ulardan o't haydovchi, siydik haydovchi, kapillyar mustahkamlovchi va qisman yallig'lanishga qarshi ekologik toza va xavfsiz tabiiy dori vositasi sifatida foydalaniladi.

Bundan tashqari golubika mevalarida katta miqdorda vitamin K borligi aniqlangan. Shuningdek, golubika mevalari ozining tarkibi jihatidan ateresklerozga va lipotrop moddalarning, ya'ni yaraga qarshi tasir etuvchi betainning muhim manbai ekanligi aniqlangan.

Golubika o'simligini hosilni yig'ib olish.

Golubika ko'chatlari uchinchi yilda gullashni boshlaydi. Ushbu o'simlik gullarini o'zidan va chetdan yaxshi changlanuvchi bo'lganligi uchun, undan yuqori hosil olish mumkin.

U gul tuzilishi va gullarining changlanish xarakteriga ko'ra fakultativ-entomofil o'simlik hisoblanadi. Shuning uchun golubikani changlatishda asalarilardan foydalanish eng istiqbolli usul hisoblanadi [3,5].

Golubika mevalarining pishish davomiyligi 1-1.5 oy davom etadi, nav xususiyatlariga qarab bu davr iyun-iyul, yoki iyul-avgust oylariga to'g'ri keladi. Har bir navning pishib yetilish jarayonida 3 martadan 5 martagacha meva hosili yig'ib-terib olinadi. 5-6 -yillardan boshlab, bir mavsumda gektaridan 15 000 kg golubika mevasi hosili yig'ib olinadi.

Golubika hosili 1 - va 2- terimlarda mevalari yirik, chiroyli ko'rinishda bo'lganligi uchun yaxshi baholanadi. 3-5-terimlarda esa rezavor mevalar kichikroq bo'ladi va asosan qayta ishlash uchun ishlatiladi.

Yig'ib olingan mevalar 2-3 hafta davomida muzlatgichda $+2^{\circ}\text{C}$ haroratda saqlanishi mumkin. Uzoqroq saqlash uchun golubika mevalari shok usulida chuqur muzlatiladi. Muzlatilgan golubika mevalarining saqlash muddati uzog'i bilan 18 oyni tashkil etadi.

2 - rasm. GOLUBIKA o'simligining hosilni yig'ish ishlari

Tibbiyotdagi va xalq tabobatidagi ahamiyati:

Golubikadan ham xalq tabobatiga ham tibbiyotda keng foydalaniladi. Yangi terilgan mevalari singaga qarshi kuchli vosita bo'lib, oshqozon sekresiyasini va oshqozon shirasining hazm qilish kuchini oshiradi. Oshqozon qatari, entekotorit va pielitda tavsiya etiladi.

Xalq tabobatida yosh bargli shoxlarining qaynatmasi yurak og'rig'iga, mevalari dizenteriyada, barglarining qaynatmasi yumshoq ich suruvchi sifatida qo'llaniladi. Erkaklik quvvatini oshirishga yordam beradi.

Bulardan tashqari golubika mevalarining eng muhim xususiyatlaridan biri- ularning turli dori-darmon qabul qilinishi natijasida yuzaga keladigan allergiyalarni bartaraf etishidir. Golubika mevalari allergik reaksiyalar keltirib chiqormaydi, aksincha allergik holatlarda davolovchi tasir ko'rsatadi.

Bu golubikaning yaxshi xususiyatlaridan biri bo'lib, uni hatto diatez va boshqa allergik tabiatga ega kasallangan bolalarni ovqatlanish ratsioniga qo'yish mumkin. Golubikaning bu xususiyati betakrordir, chunki boshqa shu kabi o'simliklar mevalari allergik kasalliklarga neytral yoki ko'p hollarda o'zi allergik kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda yetishtiriladigan golubika mevasi hozirgi kunda yurtimizda eng qimmat bo'lgan gilos yetishtirishdan ham jozibali va daromadli biznesga aylanishi shubhasiz, chunki O'zbekistonning tog'li hududlarida golubika o'stirish uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Biroq, hozircha bu qimmatbaho mevani yetishtirish, saqlash, chuqur muzlatish, tashish va sotish texnologiyalari to'g'risida yetarli bilim va ko'nikmalarning yo'qligi ishimizga to'siq bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хаитов А.А. Ўзбекистон иқлим шароитида аҳоли томорқалари ва саноат даражасида голубика кўчатларини етиштиришни йўлга қўйиш, буталарини парваришlash ва резавор мевалар етиштириш бўйича қўлланма. Тошкент. 2020.

2. Сачивко Т.В. "Оценка сортов голубики в коллекционном питомнике ботанического сада УО БГСХА" УО "Белорусская государственная сельскохозяйственная академия". 2018.

3. Jalliyev B.A., Gadayev N.N Maxsudov S.I Relationship between bee pollination of cotton end nektar produktivity varieties. International Journal of Formal Education № 6, 2022. . Pages-205-212
4. Кожевников Ю.П. Семейство вересковые (Ericaceae) // Жизнь растений. В 6-ти т. / Под ред. А. Л. Тахтаджяна. – М.: Просвещение, 1981. – Т. 5. Ч. 2. Цветковые растения. – с. 88 – 95.
5. Imomov Sh., Jurayev A., Ruzikulov J., Kurbonboyev S., Ruzikulova D., Xusinov S., Madadkhonov T. (2022). THEORETICAL STUDIES ON THE DESIGN OF TRENCHER WORK EQUIPMENT. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 989–996. <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/6504>
6. Sh.J.Imomov, J.U.Ruzikulov, S.S.Kurbanbayev, H.S.Safarov, K.S.Sobirov, and Z.Sh.Isakov “Technological process of provisional dig a ditch”, Proc. SPIE 12296, International Conference on Remote Sensing of the Earth: Geoinformatics, Cartography, Ecology, and Agriculture (RSE 2022), 122960O (6 July 2022); <https://doi.org/10.1117/12.2642980>
7. Energy-saving device for temporary ditch digging I S Hasanov¹, J U Ruzikulov¹, F A Ergashov¹, M J Toshmurodova¹ and M R Sotlikova¹ Published under licence by IOP Publishing Ltd IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, Volume 868, International Conference on Agricultural Engineering and Green Infrastructure Solutions (AEGIS 2021) 12th-14th May 2021, Tashkent, Uzbekistan Citation I S Hasanov et al 2021 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 868 012091 DOI 10.1088/1755-1315/868/1/012091
8. Морозов О.В. “Культивирование голубики узколистной (*Vaccinium angustifolium* Ait.) в Белорусском Поозерье” – Минск: БГТУ, 2016.